UZBEKISTAN Airports Aksiyadorlik Jamiyati | Joint-Stock Company

19 sentabr 2024 yil. **457** Toshkent shahri

B U Y R U Q

“Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibidagi tashkilotlarda xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish va lavozimdan boshqa lavozimga o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida

“Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda - AJ) va uning tarkibidagi tashkilotlarda vakant lavozimlarga ishga qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta’minlash, maxsus elektron dastur asosida talabgor fuqarolar va AJ tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning barchasiga teng imkoniyatlarni yaratish orqali munosib nomzodlarni saralab olish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. AJ va uning tarkibidagi tashkilotlarda xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish va lavozimdan boshqa lavozimga o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. AJ rahbariyati bilan kelishuv asosida egallanadigan, ichki yoki tashqi tanlov orqali saralanadigan, direktor vakolati doirasida ishga olinadigan lavozimlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. AJ va uning tarkibidagi tashkilotlarda vakant lavozimlarga ishga qabul qilish va tayinlash mazkur Nizom talablari asosida amalga oshirilsin.

4. AJ tarkibidagi tashkilotlar direktorlari tanlov jarayonlari zarur texnik vositalar bilan jihozlangan maxsus xonalarda o‘tkazilishini ta’minlasin.

5. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibidagi tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilsin.

6. AJ boshqaruvi raisining axborot texnologiyalari bo‘yicha o‘rinbosari S. Abdullaev tanlov jarayonlarida shaffoflikni ta’minlash, nomzodlarni saralashda qulayliklarni yaratish maqsadida mavjud platforma va saytlar

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: LQ69383536

imkoniyatlarini takomillashtirish yuzasidan zarur choralar ko‘rsin.

7. AJ tarkibidagi tashkilotlar direktorlari munosib nomzodlarni saralashda mazkur Nizom talablariga rioya etilishida shaxsan javobgar ekanliklari belgilab o‘tilsin.

8. Ushbu buyruq boshqaruv raisining o‘rinbosarlari, AJ tarkibidagi departament, boshqarma, xizmat va bo‘lim rahbarlari, shuningdek, uning tarkibidagi tashkilotlar rahbarlariga yetkazilsin.

9. “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining 2023-yil 18-iyuldagi ““Uzbekistan Airports” AJ va AJ tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish, lavozimdan boshqa lavozimga o‘tkazish va ishdan bo‘shatish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 358-sonli buyrug‘i hamda 2023-yil 18-oktyabrdagi ““Uzbekistan Airports” AJ va AJ tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish va lavozimdan boshqa lavozimga o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizomga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi 494-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish boshqaruv raisining xodimlar bo‘yicha o‘rinbosari B. Mirusmanov zimmasiga yuklansin.

Boshqaruv raisi **J.O. Umarxodjayev**